JADIDCHILIK NAMOYANDALARI ASARLARIDA ILM-MA’RIFATGA OID LEKSEMALAR

D.Sh.Raxmatullayeva
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya
Maqolada o‘zbek jadidchilik harakati namoyandalarining publitsistik va badiiy asarlarida qo‘llanilgan “ilm-ma’rifat” sememali lisoniy birliklar, ularning funksional xususiyatlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *ma’rifatparvar, jadid adabiyoti, jadidchilik harakati, tilni meyorlashtirish, ma’naviyat, ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya, o‘zlashmalar, sema, semema.*

Ma’lumki, Turkiston ma’rifatparvar ijodkorlari, xususan, jadid adabiyoti namoyandalarining milliy taraqqiyot tarixida munosib o‘rni bor. Shu ma’noda jadidchilik harakati vakillarining o‘zbek adabiy tilini rivojlantirish yo‘lidagi xizmatlarini xolisona baholash, uni o‘z o‘rniga qo‘yish, ular tomonidan yaratilgan badiiy, ilmiy-metodik asarlarni puxta tahlil etish, ”ular bo‘yicha muayyan ilmiy-nazariy xulosalarga kelish va bundan dunyo ahlini xabardor etish g‘oyat zarur” [8,5].

Jamiyat taraqqiyotining har qaysi bosqichida, muayayn ijtimoiy tuzumda insonning yuksalishini ta’minlovchi ta’lim-tarbiya, ma’naviyat va ilm-ma’rifat kabi tushunchalar mavjud bo‘lib, ular ma’naviyat, ta’lim va tarbiya sohasidagi yangilanishlarni jamiyat hayoti, undagi burilishlar bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etishni talab etadi.

Mustaqillik natijasida Turkiston diyorida istiqomat qilib kelgan barcha xalqlar milliy qadriyatlarining qayta tiklanishi va rivojlanishi uchun shart-sharoitlar vujudga keldi. O‘z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondashish, o‘tmishdagi tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g‘oyalarini xalq hayotiga tatbiq etish kabi bir qator ishlar amalga oshirildi.

Istiqlol yillarida O‘zbekistonda buyuk ma’rifatparvarlarning ijodi, amaliy faoliyatlarini tubdan o‘rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Xususan, XX asr boshlarida jadidchilik harakatining namoyandalari yaratgan badiiy asarlar, til taraqqiyoti, uni meyorlashtirish, tilning sofligi yo‘lidagi izlanishlariga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy qarashlar maydonga keldi. Ta’kidlash zarurki, bu davr vakillari asarlarining til xususiyatlari bir qator monografik tadqiqotlar uchun asos bo‘ldi [1;2;3;4;5;6;7;8;9;10].

Har bir ijtimoiy tuzum, uning kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir.

Jadidlar tomonidan yaratilgan badiiy asarlar, publitsistik maqolalar, lug‘atlar, darslik va qo‘llanmalar tili sodda, ravon uslubi bilan farqlanadi. Bu asarlarda ilm-ma’rifatga oid lug‘aviy birliklar ham alohida o‘rin tutadi. Bu yillar mobaynida ta’lim tizimida bir qator yangi tushunchalar va bu tushunchalarni ifodalovchi atamalar ham paydo bo‘ldi. Biz quyida jadid adabiyoti manbalarida qo‘llanilgan “ilm-ma’rifat” sememali leksemalar xususida so‘z yuritamiz.

O‘zbek tilidagi “ilm-ma’rifat” sememali birliklar orasida “shaxs” semasiga ega bo‘lgan *o‘qituvchi, o‘quvchi, mudir* yoki “o‘rin” semali *maktab, kitob, qalam, daftar* singari “predmet” semali leksemalar uchraydi. Ta’lim, ilm bilan bog‘liq bo‘lgan belgi anglatuvchi leksemalar ham yuqoridagi leksemalar bilan bir qatorda kelishi va alohida paradigma hosil qilishi mumkin. Bunday leksemalar qatoriga *a’lo, yaxshi, o‘rta, yomon, qoniqarli, qoniqarsiz* birliklarini kiritish mumkin. Ular “ta’lim”, “baho”, “daraja” semalari bilan umumiylik hosil qiladi va daraja ko‘rsatkichlari asosida o‘zaro farqlanadi.

Jadid davri manbalarida “ilm-ma’rifat” sememali leksema va so‘z birikmalari juda ko‘p qo‘llanilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Xususan, M.Behbudiyning “Til masalasi”, A.Fitratning “Tilimiz”, “Tilimizning adabiyligi”, Elbekning “Imlo masalasi”, Cho‘lponning “Adabiyot nadur”, Botuning “Til va imlo konferensiyasi yakunlari” singari asarlari jadidlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy sohada yetakchi bo‘lganliklarini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida ta’lim, ma’rifat bilan bog‘liq bo‘lgan qator lug‘aviy birliklar leksik makrosistemada alohida o‘rin tutadi va mazkur paradigma o‘z ichki bo‘linishlariga ega. Dastlabki bo‘linishda “ilm-ma’rifat” sememali leksemalar “ilm”, “ta’lim” va “ma’rifat”sememali ichki guruhni tashkil etadi. Ularning har qaysisi “shaxs”, “predmet”, “o‘rin”, “belgi”, “jarayon” semali leksemalar sifatida ichki bo‘linishlarga ajraladi.

Jadid adabiyoti manbalarida qo‘llanilgan “ilm” sememali birliklar:

- “shaxs” semali leksemalar: *olim, domla, shogird, ulamo, ilmli*;
- “belgi” semali leksemalar: *ilmiy; ommabop.*

*Ammo bir mulkning **ilm** quvvatini bilmak, u yerdagi **ulamolar** sonini bilmakka bog‘liqdir (Fitrat, “Munozara”).*

*Yo‘q, hammasining **ilmli** bo‘lishi mumkin emas. Agar hammasi **olim** bo‘lib ketsa, boshqa ishlar egasiz qoladi (Fitrat, “Munozara”).*

- “Ta’lim” sememali birliklar:
- “shaxs” semali leksemalar: mudarris, muallim, maktabdor;
- “o‘rin” semali leksemalar: maktab, madrasa;

*Taqsir, meni kechiradilar, **maktab** nima? Bolalar u yerda nima qiladilar va necha yil **o‘qish** bo‘ladi?* (Fitrat, “Munozara”)

***Maktab** shunday joydirki, bir muallim bor, uni “**maktabdor**” deydilar, bolalar u yerda yetti yildan to o‘n yilgacha zaruriy **xat-savodlarini** chiqargunga qadar qoladilar, undan keyin ... **madrasaga** borib, **dars** o‘qiy boshlaydilar* (Fitrat, “Munozara”).

- “jarayon” semali leksemalar: *leksiya, o‘qish, dars;*
- “harakat” semali leksemalar: *o‘qimoq, o‘rganmoq;*

*Men bir mudarris bo‘lsam, kechalari kitob **ko‘raman**, kunduzlari dars **aytaman*** (Fitrat, “Munozara”).

Berilgan parchada ko‘rmoq va aytmoq leksemalari ishtirok etgan bo‘lib, bu birliklar “harakat” semasi bilan birga, bu o‘rinda “ta’lim” semasi orqali namoyon bo‘lmoqda, ya’ni *ko‘rmoq* “o‘qimoq” semasi bilan, *aytmoq* “o‘rgatmoq” semasi orqali namoyon bo‘lmoqda. Har ikki funksional holat bugungi o‘zbek tilida deyarli kuzatilmaydi.

*Bu avomning zaruriy **xat-savodi** bormi?* (Fitrat, “Munozara”)

“Ma’rifat” sememali birliklar:

- “shaxs” semali leksemalar: *tahsili ilm*
- “o‘rin” semali leksemalar: *qulub, teatr;*
- “narsa” semali leksemalar: *jurnal, qog‘oz, gazeta, qalam;*

*So‘ng vaqtlarda bu **gazetaning** o‘z vaqtida muntazam chiqib turg‘oni ko‘riladir. **Qog‘ozlarning** yaxshilig‘i, **harflarning** ochig‘ligi rasmlik chiqib turishi jihatidan bu gazetalarimiz orasida birinchi o‘runni tutadir (*Cho‘lpon, “Adabiyot nadur”*).*

Mazkur asarda *jurnal* so‘zining *majmua* shakli ham uchraydi:

*Siz aytgan chuqur taglik mas’alalarni quloch-quloch qilib yozmoq uchun **majmua**, ya’ni **jurnal** degan narsa bo‘ladir!* (Cho‘lpon, “Adabiyot nadur”) Bu leksemaning hozirda *to‘plam* shakli qo‘llaniladi.

***Qalam** degan narsa tildek emas. U yo qamishdan, yo temirdan, yoki yog‘ochdan yasaladur* (Cho‘lpon, “Adabiyot nadur”).

“jarayon” semali leksemalar: *majlis*;

*Jug‘rofiyo hikoyat kitobi emas, **ilmiy** kitobdir* (Fitrat, “Munozara”).

Ko‘rinadiki, “ilm-ma’rifat” sememali lug‘aviy birliklarning aksariyati o‘zlashma leksemalardan tashkil topgan bo‘lib, bularning ko‘p qismi arabcha o‘zlashmalar sifatida ko‘zga tashlanadi.

Yosh avlodni tarbiyalash va o‘qitish nazariyasi bilan amaliyotning qanday taraqqiy qilib kelganligini bilmay turib, yoshlarni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal qilib bo‘lmaydi. Bu ajdodlarimiz tomonidan isbot qilingan ilmiy-nazariy, falsafiy-tarbiyaviy haqiqatdir.

A.Qodiriy, A.Fitrat, A.Cho‘lpon, M.Behbudiy singari ma’rifatparvar olimlar ilmiy-ma’rifiy asarlar bilan birga, badiiy jihatdan yetuk, ta’sirchan asarlar ham yaratdilar. Bu asarlar bugungi kunda o‘zbek filologlari tomonidan keng o‘rganilmoqda.

“Nazm – til, xususan, so‘z o‘zining butun ifoda imkoniyatlarini, ohangu musiqasini ham, ma’no tovlanmshiyu injaliklarini ham, turfa munosabatu harakatini ham namoyish eta oladigan sinoatli sahna. Bu sahnaning mohir san’atkorlari bizning ming yillik adabiyotimizda behisob bo‘lib, ularni qadim Movarounnahru Xurosonning pokiza osmonidagi mangu yarqiroq yulduzlarga mengzash mumkin” [4, 4].

Xususan, bunday porloq yulduzlar sirasiga Cho‘lpon, Fitrat singarilarni kiritish mumkin.

*Hech qaydan men kutgan zar **varaq** chiqmadi,*
*Ignadek yaltirab bir **varaq** chiqmadi* (Cho‘lpon, “Diyorim”).

Bu satrlar orqali shoir yurt, xalq taqdiridagi alamli, hasratli kunlarni aks ettirgan bo‘lib, bu o‘rinda (zar) *varaq* so‘zining “yorug‘lik”, “nur” ma’nosi ifodalangan.

*Biz erurmiz **ma’rifat arslonlari, ilm erlari**,*
To‘planaylik, turk elig‘a to‘g‘ri yo‘llar ochqali (Fitrat, “O‘qitg‘uvchilar yurtiga”).

Shoir *ma’rifat, ilm* so‘zlari bilan *arslon, er* so‘zlarini o‘zaro bog‘lash orqali ma’rifat, ilm yo‘lidagi jasur, fidoyi kishilarning xatti-harakatlarini munosib baholagan.

Har qanday amaliy natijalar muayyan tushunchalarning mohiyatini chuqur o‘rganish, to‘laqonli anglashdan boshlanadi. O‘zbek tilidagi “ilm-ma’rifat” sememali lug‘aviy birliklarni mazmuniy asosda tadqiq etish ana shu yo‘ldagi izlanishlardan

biridir. “Ilm-ma’rifat” sememali leksemalarni ichki mazmuniy bo‘linishlari, sintagmatik xususiyatlari, ayni vaqtda, tarixiy taraqqiyoti bilan aloqador belgilari asosida o‘rganish bugungi kunda tilshunoslikning muhim masalasiga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бобожонов Ф. Ўзбек жадид драмаларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. Тошкент, 2002.
2. Джалолова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. Тошкент, 2007.
3. Жомонов Р. “Чиғатой гурунги” ва имло масалалари / Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 2000. -№3.- .18-19.
4. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. Тошкент: Маънавият, 2002.
5. Неъматова Д.Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. Тошкент, 2004.
6. Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърияти лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. Тошкент, 2011.
7. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
8. Сайидов Ё.С. Жадид бадиий асарлари лексикаси: Филол. фанл. докт. ... дисс. автореф. Тошкент, 2018.
9. Тоғаев Т. Ашурали Зоҳирий ва унинг тилшунослик мероси: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. Тошкент, 2005.
10. Умаров Э. Чўлпоннинг тил ва имло конференцияси қарорларига муносабати / Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 2003. -№4. – Б.42-45.